O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ME’YORIY HUJJATLAR TAHLILI

Shomirzaev A.A.
Termiz shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Olingan natijalar va ularning yangiligi: O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi siyosati va uni takomillashtirish mexanizmlari nazariy jihatlari, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini rivojlatirish va monopoliyani cheklash borasida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyati hamda huquq va vazifalari chuqur tahlil qilingan.
Tayanch so‘zlar: Raqobat, monopoliya, meyoriy-huquqiy hujjatlar, monopoliyaga qarshi siyosat, ustun mavqe, tabiiy monopoliya.
Annotation: The results obtained and their novelty: Theoratical points of the main approaches of antimonopolistic policy of Uzbekistan, judicial documents to take control goods and capital market are explored and performance and functions of Antimonopoly committee of Uzbekistan are analysed. Suggestion and conclusion are offered to develop the main approaches of antimonopolistic policy of Uzbekistan.
Key words: Competition, monopoliy, judicial documents, antimonopolistic policy, natural monopoly, Antimonopoly Committee of Uzbekistan, goods and capital market.

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali ishlashi hamda yetarlicha raqobat muhitining ta’minlanishi monopoliyalar, ularning vujudga kelish sabablari hamda amaliyotidagi xususiyatlarini tahlil qilishni hamda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Monopoliya atamasi turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Jumladan, ba’zi holatlarda unga “xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki sotuvchilarning qandaydir xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq ustunlikka egalik qilish” deb qaralsa, boshqa o‘rinlarda, “faoliyatning u yoki bu sohasida bir shaxs yoki bir necha shaxslar guruhining har qanday ustunlik holati deb ta’rif beriladi. Bu holatlardagi monopoliyaning “mutlaq ustunlik” yoki “har qanday hamda yakka ustunlik holati” kabi tavsiflari uning tub mohiyatini to‘liq ochib bera olmasligi tufayli, uni quyidagicha ta’riflash mumkin: Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalaridir. “Monopoliya” atamasi aslida iqtisodiy kategoriya bo‘lib, grekcha “monoc” - bitta, yagona va “poleo” – sotaman degan ma’noni anglatadi, ammo uning iqtisodiy mohiyati aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi. Monopoliyalar vujudga kelishining tub mohiyati hamda moddiy asosi ishlab chiqarishning bir korxona yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt qo‘lida to‘planishini anglatadi. Ishlab chiqarishning to‘planishi - ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishini bildiradi. Ishlab chiqarish to‘planishining asosiy sababi shuki, korxonada olinayotgan foyda hajmi doimiy ravishda ortib borishidir. Foydani doimiy ravishda oshirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo‘shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini qo‘shimcha ishlab chiqarish vositalari hamda ishchi kuchi sotib oladi, ya’ni reinvestitsiya qiladi. Bu faoliyat esa, aksariyat korxonalar rivojlanishi hamda ishlab chiqarish hajmi oshishiga olib keladi.

Monopoliyaga qarshi siyosat – jahonda mavjud har bir davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosatidir. Xalqaro tajribaga ko‘ra monopoliyaga qarshi siyosat asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllanadi: dastlab, ishlab chiqarishni, yoki tarmoqni boshqaruvchi qonunlar. Ushbu

qonunlarga ko‘ra, odatda, hech bir korxona (korporatsiya)ning biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishi yarmidan ortig‘ini nazorat qilishga huquq berilmaydi. Ikkinchidan, barcha yirik korxonalar boshqa korxonalar aksiyalarining ma’lum cheklangan miqdoridan ortig‘iga ega bo‘la olmasligi belgilab qo‘yiladi. Uchunchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni cheklovchi kartellarga qarshi qonunlar joriy qilinadi.

Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati mamlakat iqtisodiyot sektorlarida raqobat muhiti avvaldan shakllangan hamda rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini yanada takomillashtirishga amaliy jihatdan yordam bersa, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar, ya’ni o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda esa raqobat muhitini shakllantirishga yoki yangidan yaratishga qaratilgan. Tovar va moliya bozorlarida ma’lum xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan monopol mavqega ega bo‘lishga urunishlar hamda monopol mavqeni suiiste’mol qilishga qarshi eng dastlabki qonunlar 1890-yilda AQShda qabul qilingan Sherman qonunlaridir.

Tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash hamda raqobat muhitini himoya qilish chora-tadbirlari turli davlatlarda turlicha olib boriladi. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyalar ustida nazoratni amalga oshirish maqsadida turli ko‘rinishdagi davlat siyosati olib boriladi. Misol tariqasida, AQShda monopoliyalarga qarshi davlat siyosati monopoliyalarga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organi “Federal savdo komissiyasi hamda Adliya departamentining trestlarga qarshi boshqarmasi” tomonidan olib borilsa, Rossiya Federatsiyasida “Federal monopoliyaga qarshi xizmat” Sharqiy Osiyo malakatlari, ya’ni Yaponiya hamda Koreya Respublikasida “Halol raqobat bo‘yicha komissiya”, Yevropa Ittifoqida esa “Raqobat bo‘yicha komissiya” tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shu aytsih kerakki, raqobat bu bozorda tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi yuqori foyda va yaxshi daromad olish uchun o‘zaro olib boriladigan kurash yoki musoqabalashuvdir. Bozorda raqobat mavjudligi bozorning sog‘lomlashishiga, tovarlar sifati oshishi hamda narxi pasayishiga hamda iste’molchilar yoki xaridorlar manfaatlari himoya qilinishiga katta hissa qo‘shadi. Raqobat mavjud joyda tovarlar sifati va narxi ustidan kuchli ma’muriy nazorat olib borishni zarurati yo‘qdir. O‘zbekiston Respublikasida raqobat muhitini yanada rivojlantirishda raqobatni cheklaydigan holatlarga qarshi kurashishning huquqiy munosabatlarini yanada takomillashtirish asosiy o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar va qonun loyihalari

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ – 221-I-qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 24.04.1996.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi “Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ – 623-sonli qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 02.07.1992.

II. Ilmiy kitoblar, monografiyalar va to‘plamlar

2.1. Azizov X. T. va boshqalar. Raqobat huquqi. Darslik. T. TDYU. 2006.

2.2. Alden F. Abbott. A brief overview of american antitrust law. Visiting Fellow, All Souls College, Trinity Term. 2005.

2.3. Alimjonova J.I. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. T. TKTU. 2010.

2.4. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. T. TDYU. 2005.

III. Internet saytlari

3.1. www.antimon.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi rasmiy sayti.

3.2. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar